



## ONLINE O'QUV PLATFORMALARIDAN FOYDALANIB INGLIZ TILINI O'RGATISHDA O'QUVCHI MOTIVATSIYASINI OSHIRISH STRATEGIYALARI

Rayimjonova Marxabxon Rustamjon qizi

Qo'qon Universiteti Andijon filiali

Ingiliz tili filologiya 25-13 guruh talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17703083>

### ARTICLE INFO

Received: 11<sup>th</sup> November 2025

Accepted: 12<sup>th</sup> November 2025

Published: 24<sup>th</sup> November 2025

### KEYWORDS

online ta'lim, motivatsiya, ingliz tili o'qitish, raqamli platformalar, pedagogik strategiyalar, gamifikatsiya, moslashtirilgan ta'lim, interaktiv metodlar, edtech, raqamli pedagogika.

### ABSTRACT

Mazkur maqolada online o'quv platformalaridan foydalanish orqali ingliz tilini o'rgatishda o'quvchi motivatsiyasini oshirishning zamonaviy pedagogik strategiyalari chuqur yoritilgan. Raqamli ta'lim muhiti bugungi globallashuv jarayonida o'quvchilarning bilim olish nafaqat ularni imkoniyatlarini kengaytiribgina qolmay, ularning o'quv faoliyatiga bo'lgan ichki qiziqishi, o'zlashtirish sur'atlari va mustaqil ishlash ko'nikmalarini sezilarli darajada rivojlantiradi. Ushbu ilmiy ishda motivatsiya nazariyalari, raqamli platformalar imkoniyatlari, o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi o'zaro aloqani o'zgarishi, shuningdek, raqamli texnologiyalarning ta'lim psixologiyasiga ko'rsatgan ta'siri ilmiy-pedagogik nuqtayi nazardan tahlil qilinadi. Maqolada platformalarning didaktik funksiyalari, interaktiv mashg'ulotlar yaratish mexanizmlari, gamifikatsiya elementlaridan foydalanish, moslashtirilgan ta'lim, differensial yondashuv, onlayn baholash tizimlarini, teskari aloqa sifati va o'quvchi ehtiyojlariga moslashtirilgan ta'lim strategiyalari batafsil yoritildi. Shuningdek, ingliz tilini o'rgatishda raqamli vositalarning afzalliklari bilan birga cheklovlari, xavflari va ularni bartaraf etish yo'llarini ham ilmiy asosda ko'rib chiqildi. Natijada maqola bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri va onlayn ta'lim sharoitida samarali motivatsiya tizimini yaratishning kompleks yondashuvini taklif etadi

### Kirish

So'nggi o'n yilliklar davomida insoniyat hayotining barcha jabhalarida kechgan raqamli transformatsiya jarayoni ta'lim tizimiga ham jiddiy ta'sir ko'rsatdi. Xususan, ingliz tilini o'rgatish jarayoni an'anaviy sinf muhitidan bosqichma - bosqich raqamli muhitga ko'chib, o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi ta'limiy aloqalarni butunlay yangi shakllarini yaratdi. Internet texnologiyalarining keng ommalashuvi natijasida ta'limning turli shakllari va masofaviy ta'lim, aralash ta'lim blended learning, MOOC kurslar, mobil ilovalar, interaktiv treninglar, video-darslar, sun'iy intellekt asosidagi ta'lim platformalari va raqamli o'quv resurslari keng qo'llanilib kelmoqda. Ushbu jarayonning markazida o'quvchi shaxsi va uning motivatsiyasi turadi chunki qanday platforma, metod yoki strategiya qo'llanmasin, ta'lim jarayonining samaradorligi avvalo o'quvchining o'zlashtirishga bo'lgan ichki ehtiyoji, ishtiyoqi va faol ishtirokiga bog'liq shu bois o'quvchi motivatsiyasi masalasi zamonaviy pedagogikaning

eng muhim yo'nalishlaridan biridir. Ingliz tilini o'rganish bugungi global davrda har bir yosh uchun zarur kompetensiyalardan biri ekanligini inobatga olsak, bu jarayonni samarali tashkil etishda motivatsiyani oshirishga qaratilgan raqamli yondashuvlar nihoyatda muhim ahamiyatga ega. Ingliz tili va xalqaro biznes, ilm-fan, texnologiya, diplomatiya, san'at, internet va ta'limning asosiy tili bo'lib, uni bilish o'quvchi uchun keng imkoniyatlar eshigini ochadi. Biroq ingliz tilini o'rganish doim ham oson emas ko'p vaqt, izchillik va amaliy mashqlar talab qiladi. Aynan shu nuqtada online platformalardan foydalanish o'quvchining jarayonga bo'lgan qiziqishini kuchaytiruvchi kuchli motivatsion omil sifatida namoyon bo'ladi. Raqamli o'quv platformalari "Duolingo, Coursera, Quizlet, BBC Learning English, Udemy, LinguaLeo, YouTube EDU, Khan Academy va boshqalar" o'zining interaktivligi, moslashuvchanligi, ko'rgazmaliligi va turli metodik imkoniyatlari bilan o'quvchini jarayonga jalb qilib, uning mustaqil o'qish madaniyatini shakllantiradi. Bu platformalarda o'quvchini faollikka undovchi mexanizmlar va reytinglar, ball yig'ish tizimi, badge va medallar, qiyinchilik bosqichlari, vaqt bo'yicha musobaqalar, ovozli mashqlar, animatsiyalar, o'yinlar, videodarslar, virtual suhbatlar, chatbotlar va sun'iy intellekt yordamidagi maslahatlar mavjud bo'lib, ular o'quvchi motivatsiyasining ichki va tashqi omillarini bir vaqtning o'zida ishga soladi. Pedagogik nuqtayi nazardan qaraganda, online platformalarning asosiy ustunligi shundaki, ular dars jarayonini shaxsga yo'naltirilgan ta'lim tamoyillariga mos ravishda tashkil etadi. Har bir o'quvchi o'z qobiliyat darajasi, o'rganish tezligi va ehtiyojlariga mos ravishda band bo'lishi mumkin. Avtomatik tahlil tizimlari o'quvchining xatolarini aniqlaydi, rivojlanishini kuzatadi, unga individual tavsiyalar beradi. Bu esa o'quvchining "men qila olaman" degan ichki ishonchini kuchaytiradi, uning o'quv faoliyatida barqaror motivatsiya shakllanishiga yordam beradi. Online ta'limda motivatsiyani oshirish jarayoni o'ziga xos psixologik mexanizmlarga ega masalan, o'quvchi raqamli platformada mashqlarni bajarganda darhol teskari aloqa oladi va bu esa motivatsiya nazariyalariga ko'ra, eng kuchli rag'batlantiruvchi omillardan biridir shuningdek, gamifikatsiya elementlari o'quvchini musobaqa va muvaffaqiyat hissiga yo'naltiradi, vizual va eshitish materiallari esa informatsiyani ko'proq sezgi orqali qabul qilishga yordam beradi. An'anaviy sinfda o'qituvchi yakkama-yakka ishlashga ulgurmasligi mumkin, ammo online platforma individual tarzda ishlash imkoniyati yaratadi. Shu bilan birga, raqamli ta'lim o'quvchining mas'uliyatini kuchaytiradi, u o'zining vaqtini boshqarishni, vazifalarni rejalashtirishni, mustaqil izlanishni o'rganadi. Bu jarayonda o'qituvchining vazifasi o'quvchini to'g'ri yo'naltirish, unga metodik ko'mak berish, uning natijalarini monitoring qilish va motivatsion qo'llab - quvvatlashdan iboratdir. Shunga qaramay, online platformalardan foydalanishda ba'zi muammolar ham mavjud: diqqatning tez chalg'ishi, raqamli charchoq, internetga bog'liqlik, noto'g'ri resurs tanlash, sust nazorat, noto'g'ri motivatsion mexanizmlar va boshqalar, shu bois pedagogik strategiyalarni ishlab chiqishda faqat texnik imkoniyatlar emas, balki psixologik, metodik va pedagogik yondashuvlar ham hisobga olinishi kerak. Mazkur ilmiy maqola aynan shu murakkab jarayonlarni chuqur o'rganadi va ingliz tilini o'qitishda online platformalardan samarali foydalanish orqali o'quvchi motivatsiyasini oshirishning kompleks strategiyalarini taklif qiladi.

### Asosiy qism

Online ta'lim va motivatsiya o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikning nazariy asoslari. Zamonaviy pedagogika motivatsiyani ta'limning yuragi sifatida talqin qiladi. O'quvchi o'rganishga ichki ehtiyoj sezmasa, eng yaxshi metod ham kutilgan natijani bermaydi. Raqamli ta'lim muhiti motivatsiya mexanizmlarini tubdan o'zgartirib, o'quv jarayoniga yangi psixologik omillarni olib kirdi. Onlayn platformalar o'quvchining ichki motivatsiyasiga "qiziqish, o'zini rivojlantirish istagi, ijodkorlik, muvaffaqiyatga erishish ehtiyoji" va tashqi motivatsiyasiga "ball, reyting, badge, medallar, vaqt bo'yicha topshiriqlar" bir vaqtning o'zida ta'sir qiladi. Motivatsiya nazariyalari - Maslou ierarxiyasi, Dekay va Rayaning "O'z-o'zini belgilash nazariyasi", Skinnerning "rag'batlantirish" modeli va online ta'limda yangicha talqinda

namoyon bo'ldi masalan, o'quvchi platformada qiyin topshiriqni bajarganda darhol ijobiy teskari aloqa olishi, uning ichki ishonchini mustahkamlaydi. Bu jarayon ta'lim psixologiyasida "zudlik bilan quvvatlash" deb yuritiladi va o'quvchi faoliyatini davom ettirishga rag'batlantiradi. O'z-o'zini belgilash nazariyasiga ko'ra, har bir o'quvchi uch asosiy ehtiyojga ega. Mustaqillik o'zi boshqaradigan o'quv jarayoni kompetentlik o'zini qila olishini his qilish. Ijtimoiy aloqadorlik boshqalar bilan fikr almasha olish. Online platformalar bu ehtiyojlarni to'liq qondira oladi masalan, Duolingo yoki Quizlet'da o'quvchi qaysi bo'limni o'rganishni tanlaydi mustaqillik, kichik muvaffaqiyatlar uchun mukofotlar oladi kompetentlik, jamoadoshlar bilan musobaqalashadi. Natijada o'quvchi ingliz tilini majburiyat emas, balki qiziqarli mashg'ulot sifatida qabul qila boshlaydi. Raqamli platformalarning didaktik imkoniyatlari. Online platformalar ingliz tili o'rganish jarayonida bir nechta didaktik komponentlarni birlashtiradi, Multimodal ta'lim ingliz tili o'rganish jarayonida faqat matn emas, balki audio, video, animatsiya, interaktiv testlar va vizual ko'maklar qo'llaniladi. Bu multimodal yondashuv o'quvchining bir nechta hissiyot kanalini faollashtiradi, natijada ma'lumot yaxshiroq esda qoladi.

Adaptiv moslashtirilgan ta'lim tizimi ko'plab platformalar o'quvchining xatolarini avtomatik tahlil qiladi va unga mos mashqlar tavsiya qiladi masalan, agar o'quvchi past darajadagi so'z boyligiga ega bo'lsa, tizim unga murakkab grammatik topshiriqlar bermaydi. Bu didaktik moslashuv o'quvchining ruhiy bosimini kamaytiradi va motivatsiyani oshiradi. Ko'rgazmalilik va interaktivlik o'quvchi passiv kuzatuvchi emas, balki faol ishtirokchi bo'ldi. Virtual kartochkalar, testlar, audio tanlovlar, virtual dialoglar o'quv jarayonini real hayotga yaqinlashtiradi. Teskari aloqa tizimi an'anaviy ta'limda o'quvchi xatosini kech bilishi mumkin, biroq online platformada u darhol tuzatish oladi. Bu esa o'quvchining kognitiv rivojlanishiga ijobiy ta'sir qiladi. Gamifikatsiya va motivatsiyaning kuchayishi. Gamifikatsiya va o'yin elementlaridan ta'limda foydalanish jarayoni, online platformalar gamifikatsiya orqali o'quvchini o'qishga jalb qiladi.

Gamifikatsiyaning asosiy elementlari ball va reytinglar qiyinchilik bosqichlari badge, medal va mukofotlar, o'yin senariylari, vaqt bilan bog'langan topshiriqlar, virtual qahramonlar, kunlik maqsadlar va rejalashtirish tizimi masalan, Duolingo o'quvchini "ketma-ket kunlik o'rganish seriyasi" orqali rag'batlantiradi. Bu psixologiyada "uzilishdan qo'rqish effekti" deyiladi va o'quvchi o'z seriyasini buzmaslik uchun darsni o'tkazib yubormaydi. Gamifikatsiya o'quvchini "majburiy o'qish"dan "qiziqarli sarguzasht"ga o'tkazadi. O'quvchi motivatsiyasini oshirishga qaratilgan strategiyalar. Quyidagi pedagogik strategiyalar online platformalar yordamida o'quvchining motivatsiyasini sezilarli darajada oshiradi. Shaxsga yo'naltirilgan o'qitish strategiyasi. O'quvchi o'zining qiziqishi, ehtiyoji, darajasi, tezligi bilan moslashtirilgan topshiriqlarni oladi. Bu strategiya "bir xil dars hamma uchun" tizimini yo'q qiladi. Kichik qadamlar orqali katta natija strategiyasi. Ingliz tili o'rganishda katta maqsadlarni kichik bo'limlarga bo'lish motivatsiyani oshiradi. Online platformalarda bo'limlar juda qisqa va sodda ko'rinadi, natijada o'quvchi o'zini muvaffaqiyatli his qiladi. Teskari aloqa asosidagi motivatsiya platformaning darhol javob berishi o'quvchini "xato qilsam ham davom etaman" degan ruhiy holatga keltiradi. Durustlashtirilgan baholash strategiyasi o'qituvchi platformadagi natijalarni tahlil qilib, o'quvchiga shaxsiy tavsiyalar beradi. Bu jarayon o'quvchining mas'uliyatini oshiradi. Hamkorlikka asoslangan strategiya online guruh mashg'ulotlari, virtual suhbatlar, loyiha asosidagi o'qish o'quvchining ijtimoiy motivatsiyasini oshiradi. O'qituvchining motivatsiya jarayonidagi yangi roli online ta'lim davrida o'qituvchining roli o'zgaradi. U endi nazoratchi emas, yo'l ko'rsatuvchi mentor, metodik maslahatchi, motivatsiya beruvchi murabbiy, raqamli jarayonlarni boshqaruvchi fasilitator sifatida faoliyat yuritadi. O'qituvchining quyidagi harakatlari motivatsiyani kuchaytiradi o'quvchi natijasini tahlil qilib, shaxsiy ko'rsatmalar berish. Qiyinchilik darajasini moslash, rag'batlantiruvchi fikrlar yozish, online tadbirlar va virtual loyihalar uyushtirish,

platformalardan foydalanishda o'quvchini yo'naltirish. Online platformalarning ijtimoiy - psixologik ta'siri ingliz tilini o'rgatishda online platformalar o'quvchi ruhiyatiga bir nechta yo'nalishda ta'sir ko'rsatadi mustaqillik hissi o'quvchi "men o'zim o'rgana olyabman" degan ishonchni his qila oladi. Xavfsiz muloqot muhiti uyatchang yoki sust o'quvchilar virtual mashg'ulotlarda o'zini erkinroq his qiladi. O'zini baholash ko'nikmasi onlayn testlar o'quvchiga o'z darajasini bilish imkonini beradi. Diqqatning bo'linishi agar platforma noto'g'ri tanlansa, o'quvchining diqqat tarqoqligi ortishi mumkin. Shu bois pedagogik nazorat zarur. O'quvchi motivatsiyasini oshirishda lingvodidaktik yondashuvlar. Onlayn platformalar orqali ingliz tilini o'qitish jarayonida samarali motivatsiya yaratish uchun lingvodidaktikaning zamonaviy tamoyillaridan foydalanish muhimdir. Chunki raqamli ta'lim muhiti an'anaviy sinfdagi jarayonlardan keskin farq qiladi va o'quvchining psixologik ehtiyojlari ham boshqacha shakllanadi. Lingvodidaktika ta'kidlaganidek, til o'rganuvchi shaxs faqat bilim iste'molchisi emas, balki faol kommunikativ jarayon ishtirokchisi hisoblanadi. Shu sababli onlayn platformalarga integratsiya qilinadigan topshiriqlar ham kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishga qaratilgan bo'lishi talab etiladi. Motivatsiyani shakllantirishning asosiy komponentlaridan biri - autentiklik tamoyilidir. O'quvchilar real hayotiy vaziyatlarga yaqinlashtirilgan topshiriqlarni bajarishda o'zini haqiqiy ingliz tilining foydalanuvchisi sifatida his qiladi va bu ularni faol qatnashishga undaydi. Masalan, Duolingo, BBC Learning English, Coursera kabi platformalarda keltiriladigan haqiqiy muloqot namunalarini eshitish, videodarslar asosida tahlil qilish yoki ingliz tilida global muammolar bo'yicha fikr bildirish topshiriqlari o'quvchilarni mazmuniy motivatsiya bilan ta'minlaydi. Psixologik motivatsiya modellarining onlayn ta'limga tatbiqi. Motivatsiya bo'yicha xalqaro ilmiy maktablarning ko'plab nazariyalari onlayn ta'lim jarayonini izohlash uchun mos keladi. Xususan, Deci va Ryan tomonidan ishlab chiqilgan o'z-o'zini aniqlash nazariyasi "Self-Determination Theory" o'quvchining ichki motivatsiyasi uch asosiy psixologik ehtiyoj - avtonomiya, kompetentlik va ijtimoiy aloqadorlik orqali shakllanishini ta'kidlaydi. Onlayn platformalardan foydalanilganda bu ehtiyojlarni qondirish imkoniyati kengayadi avtonomiya va o'quvchi o'z tempida, o'z tanloviga ko'ra mashg'ulotlar o'tadi. Bu mustaqil o'rganishga bo'lgan ishonchni oshiradi. Kompetentlik darajaga moslashtirilgan interaktiv mashqlar, avtomatik fikr-mulohazalar va reyting tizimlari o'quvchiga o'z yutuqlarini tez-tez ko'rib borish imkonini beradi. Aloqadorlik va virtual sinflar, forumlar, guruhli loyihalar orqali ijtimoiy muloqot shakllanadi, bu esa tashqi motivatsiyani ichki motivatsiyaga aylantiradi. Psixologik ehtiyojlar qanchalik qondirilsa, o'quvchining ingliz tilini o'rganishdagi qat'iyligi va chidamliligi shunchalik ortadi. O'quv jarayonini gamifikatsiyalashning motivatsion kuchi. Gamifikatsiya va raqamli ta'limning eng motivatsion mexanizmlaridan biri sifatida tan olingan. Bu metod o'quv jarayoniga o'yin elementlarini qo'shish orqali o'quvchilarni faol ishtirok etishga undaydi. Badge, ball, reyting, bonuslar, vaqt chegarasi kabi elementlar o'quvchilar uchun musobaqa muhitini yaratadi. O'quvchilar gamifikatsiyalangan platformalar orqali o'z natijalarini boshqalar bilan taqqoslaydi, o'z oldiga maqsad qo'yadi, kichik yutuqlar orqali o'ziga bo'lgan ishonchni mustahkamlaydi. Gamifikatsiyalangan darslar darsning monotonligini yo'qotadi, o'zlashtirish sur'atini oshiradi va o'quvchi ongida "men shu jarayonning faol ishtirokchisiman" degan ichki ishonchni shakllantiradi. Onlayn platformalarda multimodal o'quv materiallarining roli. Raqamli ta'limning eng muhim afzalliklaridan biridir multimodal resurslardan foydalanish imkoniyatidir. Video, audio, infografika, interaktiv testlar, vizual diagrammalar, animatsiyalar va real kommunikativ vaziyatlarni aks ettiruvchi materiallar o'quvchining idrokiga kompleks tarzda ta'sir qiladi. Multimodal ta'limning motivatsiyaga ta'siri quyidagicha namoyon bo'ladi: audiovizual stimullar o'quvchi e'tiborini uzoq vaqt davomida faol holatda ushlab turadi. Mavzuning vizual izohi abstrakt grammatik qoidalarni sodda va esda qolarli qiladi. Interaktiv materiallar o'quvchining passiv iste'molchilik modelini buzib, uni faol ijodkorlikka undaydi. Natijada multimodal ta'lim matniiy materiallarga nisbatan yuqori o'zlashtirish ko'rsatkichini beradi.

O'qituvchi faoliyatining transformatsiyasi va motivatsiyaga ta'siri. Onlayn platformalar o'qituvchining rolini tubdan o'zgartiradi. Zamonaviy pedagog endi faqat ma'lumot beruvchi emas, balki ta'lim jarayonini boshqaruvchi, yo'naltiruvchi va motivatsiya beruvchi shaxsga aylanadi. Onlayn muhitte o'qituvchining quyidagi kompetensiyalari ayniqsa muhim: raqamli resurslarni didaktik maqsadga mos tanlash; har bir o'quvchining individual qobiliyatini tahlil qilish; differensial yondashuvni qo'llash; o'quvchini faol muloqotga undash; o'z vaqtida rag'bat, baholash va teskari aloqa berish. O'qituvchi tomonidan berilgan mazmunli feedback o'quvchi motivatsiyasining eng muhim tarkibiy qismlaridan biridir, chunki o'quvchi o'z qadamlarining samaradorligini aniq bilib boradi. Masofaviy ta'limda individuallashtirilgan o'quv yo'llari onlayn platformalarda har bir o'quvchi uchun shaxsga moslashtirilgan o'quv trayektoriyasini yaratish mumkin. Bu, o'z navbatida, o'quvchiga o'z qiziqishi, tayyorgarligi va o'zlashtirish sur'atiga mos mashg'ulotlarni tanlash imkonini beradi. Individual o'quv yo'li motivatsiyani quyidagi yo'llar orqali kuchaytiradi, o'quvchi o'z imkoniyatiga mos vazifalarni bajargani uchun tez-tez muvaffaqiyatga erishadi o'quv jarayoni shaxsiy ehtiyojlariga moslashadi va ortiqcha qiyinchilik yoki zerikish holatlari kamayadi, mustaqil o'rganishga bo'lgan ichki ishonch shakllanadi. Shaxsga yo'naltirilgan yondashuv o'quvchida uzoq muddatli motivatsiyani mustahkamlaydi.

### **Xulosa**

Bugungi kunda ingliz tilini o'qitishda online o'quv platformalaridan foydalanish nafaqat zamonaviy pedagogik talab, balki o'quv jarayonining samaradorligini oshiruvchi strategik vosita sifatida qabul qilinadi. Mazkur maqolada ta'kidlanganidek, online ta'lim muhiti o'quvchining nafaqat motivatsiyasini bir nechta yo'nalishda kuchaytiradi balki ichki motivatsiya qiziqish, mustaqil o'rganish istagi, ijodkorlik, tashqi motivatsiya ball, badge, reytinglar, teskari aloqa va ijtimoiy-emotsional motivatsiya hamkasblar bilan muloqot, guruh loyihalari va onlayn platformalar lingvodidaktik tamoyillarga moslashgan holda o'quvchilarga multimodal resurslar audio, video, animatsiya, interaktiv testlar orqali ingliz tilini o'rganish imkonini beradi. Shu bilan birga, gamifikatsiya va moslashtirilgan o'quv yo'llari motivatsiyani yanada oshirib, o'quvchida uzoq muddatli o'z-o'zini rivojlantirish intizomini shakllantiradi. Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, onlayn baholash tizimlari va darhol teskari aloqa o'quvchining qobiliyatini aniqlashga va mustaqil ishlashga rag'batlantiradi. Ijtimoiy - emotsional komponent esa o'quvchining motivatsiyasini mustahkamlash va uni faol kommunikator sifatida shakllantirishga xizmat qiladi. Shu tarzda, o'qituvchi faqat ma'lumot beruvchi emas, balki yo'l ko'rsatuvchi mentor va metodik maslahatchi sifatida faoliyat yuritadi. Biroq maqolada ta'kidlanganidek, onlayn ta'limning samaradorligi platformaning sifatiga, o'quvchining texnologiyaga moslashuv darajasiga, shuningdek pedagogik yondashuvning to'g'riligiga bog'liq. Internetga bog'liqlik, diqqat chalg'ishi va raqamli charchoq kabi cheklovlar mavjud bo'lsa-da, pedagogik strategiyalarni to'g'ri qo'llash orqali bu muammolarni bartaraf etish mumkin. Xulosa qilib aytganda, online o'quv platformalaridan foydalanish orqali ingliz tilini o'qitish - bu o'quvchilarning bilimini oshirish bilan birga, ularning ichki va tashqi motivatsiyasini uyg'unlashtirish, mustaqil ishlash ko'nikmalarini rivojlantirish va ijtimoiy-emotsional kompetensiyasini shakllantirishga xizmat qiluvchi kompleks pedagogik yondashuvdir. Shu sababli, zamonaviy ta'lim jarayonida onlayn platformalarni samarali integratsiya qilish, motivatsiya strategiyalarini tizimli qo'llash va pedagogik innovatsiyalarni joriy etish o'quvchilarning ingliz tilini o'rganish jarayonidagi muvaffaqiyatini sezilarli darajada oshiradi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Deci, E. L., & Ryan, R. M. (2000). Self-Determination Theory and the Facilitation of Intrinsic Motivation, Social Development, and Well-Being. *American Psychologist*, 55(1), 68-78.

2. Maslow, A. H. (1943). A Theory of Human Motivation. *Psychological Review*, 50(4), 370–396.
3. Skinner, B. F. (1953). *Science and Human Behavior*. New York: Macmillan.
4. Oxford, R. L. (1990). *Language Learning Strategies: What Every Teacher Should Know*. Boston: Heinle & Heinle.
5. Dörnyei, Z. (2001). *Motivational Strategies in the Language Classroom*. Cambridge: Cambridge University Press.
6. Godwin-Jones, R. (2018). Using Mobile Technology to Develop Language Skills and Cultural Understanding. *Language Learning & Technology*, 22(3), 1–17.
7. Reinhardt, K., & Zander, V. (2019). Gamification in Second Language Acquisition: Motivational and Pedagogical Considerations. *Journal of Language Teaching and Research*, 10(5), 1024–1035.
8. Kukulska-Hulme, A. (2012). Mobile-Assisted Language Learning [MALL]. *The Encyclopedia of Applied Linguistics*.
9. Warschauer, M., & Kern, R. (2000). *Network-Based Language Teaching: Concepts and Practice*. Cambridge: Cambridge University Press.



INNOVATIVE  
ACADEMY